

# Iqtisodiyotning rivojlanishida raqobat muhiti va klasterlarning o'рни

*Xamrakul Urdushev<sup>1</sup>, Majid Mavlyanov<sup>1</sup>, Sirojiddin Eshankulov<sup>1</sup>*

*<sup>1</sup>Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti. Samarqand viloyati, Samarqand shahri. 140103. Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77. O'zbekiston*

*[x.urdishev@gmail.com](mailto:x.urdishev@gmail.com), [eshonqulov8202@gmail.com](mailto:eshonqulov8202@gmail.com), [majid.mavlyanov1975@gmail.com](mailto:majid.mavlyanov1975@gmail.com)*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10467793>

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, unumdorlik, eksport, import, innovasiyalar, YAIM, klaster.

Annotasiya: Maqolada iqtisodiyotda raqobatbardoshlik, raqobat muhiti, Jahon Bankining mam-lakatimizga oid ma'lumotlari va iqtisodiyotda klasterlash jarayonlarining mohiyati va ahamiyati xaqida so'z boradi

## 1 KIRISH

Barcha taraqqiy etgan mamlakatlarda bo'lgani singari, 2017 yildan boshlab O'zbekiston iqtisodiyotini klasterlash - amaliy faoliyat sohasi sifatida rivojlanmoqda. Mamlakatimizning turli mintaqalarida ko'plab klaster loyihalari amaliyotga joriy etilmoqda. Milliy iqtisodiyotning innovasion rivojlanishi uchun bozor iqtisodiyotining istiqbolli yo'nalishi sifatida amaliyotga, xususan, qishloq xo'jaligi tarmoqlariga klaster modelining mexanizmlarini, xo'jalik yuritish va boshqaruvlarini joriy etish fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integrasiyalashuvini ta'minlashga asos bo'ladi. Hozirgi davrda, O'zbekiston iqtisodiyotni rivojlantirishning ustivor yo'nalishlaridan biri, ichki va tashqi bozorda raqobatni oshirishga yo'naltirilgan tarmoq va sohalarida mintaqaviy, hududiy klasterlarini tuzishdan iborat bo'lib qolmoqda.

## 2 MATERIALLAR VA USULLAR

Tadqiqotning axborot bazasi bir necha turdagi manbalarni o'z ichiga oladi: Statistika agentligi materiallari; Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti va Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti ekspert materiallari; Respublika va mintaqaviy darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar; o'quv, ilmiy adabiyotlar va davriy nashrlarda chop etilgan ma'lumotlar, oldin o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari. Tadqiqotda induksiya, deduksiya, iqtisodiy va qiyosiy, monografik va statistik usullaridan foydalanildi.

## 2.1 RAQOBOTBARDOSHLIK VA RAQOBOT MUHITI XAQIDA

2006 yil boshida Moskva Strategik tadqiqotlar markazida professor Maykl Porter, Kristian Ketels va boshqalar Rossiya raqobatbardoshligining haqiqiy holatini tahlil qilib "Competitiveness at the Crossroads: Choosing the Future Direction of the Russian Economy (Chorrahada raqobatbardoshlik: Rossiya iqtisodiyotini rivojlantirish yo'nalishlari)" nomli tadqiqotida [1] postsovet mamlakatlarining rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishi "raqobotbardoshlik", "aholining turmush darajasi", "unumdorlik", "meros qilib olingan boylik" va "yaratilgan boylik" kabi tayanch tushunchalar bilan tasniflanadi. Ularning fikricha: "Raqobotbardoshlik nima ekanligini tushunish uchun, avvalo, millat faravonligi asoslarini tushunish kerak. Iqtisodiyotning mutlaq hajmi, oltin-valyuta zahiralari yoki savdo balansi emas, balki, aynan aholini turmush darajasi asosiy maqsad bo'lishi kerak. Turmush darajasi alohida fuqarolar uchun emas, balki butun mamlakat aholisi uchun baholanishi kerak va aholi turmush darajasining yaxshilash uning barcha guruhlar uchun mavjud bo'lishi kerak".

Porter va Ketelslar "raqobotbardoshlikni amalga oshirish ko'rsatkichlari va vositalari" xaqida to'xtalib "unumdorlik (samaradorlik)ning oshirish va iqtisodiyotni yanada samarali ish o'rinlarini yaratish jarayoni raqobotbardoshlikning oraliq ko'rsatkichlari bo'lib xizmat qiladigan bir qator vositalar bilan ta'minlanadi",- deb qayd etadi, ular: ichki investisiyalar, eksport, import, kiruvchi

xorijiy investisiyalar, chet elga investisiya kiritish va mahalliy innovasiyalardan iborat bo'ladi. Demak,

- ichki investisiyalar kompaniyalar va infratuzilmalarning unumdorlik darajasini oshirish uchun juda muhimdir.

- eksport evaziga davlat o'zining eng samarali faoliyatini mahalliy bozor talabidan tashqariga chiqadigan darajada rivojlantirishi mumkin.


- import evaziga mamlakat o'zida samarali ishlab chiqara olmaydigan tovarlarga, ishlab chiqarish vositalariga kiritilgan xorijiy texnologiyalarga ega bo'ladi va ichki bozorlarda raqobatni kuchaytiradi.

- to'g'ridan-to'g'ri kiruvchi xorijiy investisiyalar qo'shimcha kapitalni, shuningdek, texnologiya, ko'nikmalar, boshqaruv, bozorga kirish va raqobatbardosh bosimini keltirib chiqaradi.

- chet elga investisiya kiritish tashqi imkoniyatlarni o'rganish bilan birga mahalliy kompaniyalarning xalqaro miqyosda o'sishiga yordam beradi.

1-rasm. Raqobatbardoshlikni amalga oshirish uchun ko'rsatkichlar va vositalar [1].

## 2.2 JAHON BANKI



## O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI XAQIDA


Jahon Bankining O'zbekiston iqtisodiyotiga oid ochiq ma'lumotlarini tahlilini keltiramiz. Ma'lumki, dunyo mamlakatlarining global iqtisodiyotdagi reytingi uni YAIMi hajmi bilan belgilanadi. O'zbekistonning YAIM 2022 yilda

\$80,39 mlrd. dollarni tashkil etgan [2]. Jahon Bankining 2022 yilgi ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonning global reytingi-jahonning 178 ta mamlakati ichida 71-, Osiyoning 40 mamlakati ichida 23-, sobiq Ittifoq mamlakatlari ichida 4-, Markaziy Osiyoda 2- va O'rta Osiyoda 1-o'rinni egallaydi Qo'shni Qozog'istonning YAIM \$220.62 mlrd. dollarni tashkil etib, bu mamlakat dunyoda - 53, Osiyoda - 20, Sobiq Ittifoqda - 2, Markaziy Osiyoda 1 o'rinda turuvchi global reytingga ega. Keyingi yillarda mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlari samarasi o'laroq YAIM tizimli o'sishi kuzatilmoqda. Masalan, O'zbekistonning global reytingi 2017 yilda 75 (YAIMi \$60,52 mlrd.), 2018 - 86 (\$52,87 mlrd.), 2019 - 81 (\$60,28 mlrd.), 2020 - 77 (\$60,22 mlrd.), 2021 - 75 (\$69,6 mlrd.)ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022-yilda:

• O'zbekiston yalpi ichki mahsulot (YAIM) - 80,39 mlrd. dollarni tashkil etgan, 178 ta dunyo mamlakatlari global reytingida 71 o'rinni egallaydi. Dunyo mamlakatlari YAIMning o'rtacha ko'rsatkichi 2022 yilda - 556,48 mlrd. dollarni tashkil etgan. YAIM bo'yicha O'zbekiston sobiq ittifoq davlatlarida ichida to'rtinchi, MO respublikalari ichida ikkinchi o'rinni egallaydi.

• YAIMni o'sish sur'ati 5,67 %ni, aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi 2255,15 \$ dollarni tashkil etgan.




2-rasm. O'zbekiston YAIM dinamikasi, mlrd dollar. [2] ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.



3-rasm. O'zbekiston YAIM o'zgarish dinamikasi, % [2] ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.


• Tovarlar va xizmatlar eksporti - 21,92 mlrd. importi - 35,62 mlrd. dollarni tashkil etgan. O'zbekiston tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha Jahon Banki reytingida 72, importida 60 - o'rinni

egallaydi. Tovarlar va xizmatlar eksportining YAIMdagi ulushi, 27,27 %ni tashkil etgan. Mamlakat iqtisodiyotiga 2,53 mlrd. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar kiritildi.



4-rasm. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM, \$ dollar. [2] ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

- Umumiy ish bilan band bo'lgan mamlakat aholisini qishloq xo'jaligidagi ulushi - 23,95 % foizni tashkil etmoqda. Dunyo mamlakatlari bo'yicha qishloq xo'jaligini YAIM ulushi bo'yicha birinchi uchlikni Efiopiya (37,84%), Mali (36,42) va Komor orollari (36,41) egallaydi. Bu reytingda O'zbekiston 23,47 % ko'rsatkich bilan 13-o'rinni egallaydi. Qirg'iz Respublikasi 12,12 % bilan 44-o'rinni, Belorussiya 7,71 % bilan 68-o'rinni, Gruzniya 6,09 % bilan 77-o'rinni, Qozog'iston 5,19 % bilan 80-o'rinni, Ozarboyjon 4,76 % bilan 83-o'rinni, Rossiya 3,9 % bilan 96-o'rinni egallaydi.



5-rasm. Umumiy ish bilan band aholini qishloq xo'jaligidagi ulushi, %. [2] ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

- Qishloq xo'jaligining YAIMdagi ulushi 23,47 %ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha Jaxon Banki global reytingda 13 o'rni egallagan.

- O'zbekiston umumiy yer maydoni bo'yicha Jahon Banki global reytingida 55-o'rinni egallaydi va 440 ming 650 kv. km'dan iborat. Dunyoni 196 ta davlati ichida mamlakatimiz - aholini umumiy soni bo'yicha 42-pog'onani egallaydi. Hozirgi kunda mamlakat aholisi - 36 mln. 400 mingdan ziyod kishini tashkil etadi va uning qariyb yarimi qishloq hududlarida yashaydi. Umumiy ish bilan band aholini qishloq xo'jaligidagi ulushi - 24 % ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada - 1,03, Germaniyada - 1,25, Kanadada - 1,34, AQShda - 1,66, Rossiyada - 5,8, Qozog'istonda - 15,05, Qirg'iz Respublikasida - 16,58,

Turkmanistonda - 22,32, Xitoyda - 24,41, Tojikistonda - 42,6 foizni tashkil etadi (2021). O'zbekistonda haydaladigan yer maydonlarini umumiy yer maydonidagi ulushi 9,1 %ni tashkil etib 2020 yilgi jahon global reytingida 106-o'rinni band etgan. Mamlakatda ishsizlik darajasi 6,01 foizni tashkil jahon global indeksida 106-o'rinni band etadi.

## 2.3 KLASSTERLASHTIRISH MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA NIMA BERMOQDA?

Hozirgi vaqtda klasterlar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bo'lgani singari mamlakatimiz iqtisodiy sektoriga keng joriy etilmoqda. Ushbu tuzilmalar mintaq va hududlarning iqtisodiy rivojlanishida tobora muhim rol o'ynamoqda va ko'pincha ular iqtisodiy rivojlanishning asosi sifatida eng samarali va optimal tuzilmalar sifatida qabul qilinmoqda [3-6]. Klaster usuli iqtisodiyotning asosiy va bir-biriga bog'liq tarmoqlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish, xom ashyo, energetik, ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi [7]. 2018-2022 yillarda O'zbekistonda iqtisodiy o'sish drayverlari bo'lgan 506 ta klaster tashkil etildi. Bu esa so'nggi besh yil ichida mahsulot ishlab chiqarish hajmini 32 barobarga oshirish va 28,7 trln. so'mga yetkazish imkonini berdi. Bunday natijaga erishishda 2018-2022 yillarda klasterlarni rivojlantirish uchun yo'naltirilgan investisiyalar hajmining 5,2 baravar, sohada band bo'lganlar sonining 2,5 baravar ortishi yordam berdi. 2019-yilda mamlakatning sanoat mahsulotlari eksportida klasterlarning ulushi 5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 11,4 foizga etdi. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va sur'atini oshirish, tarmoqlararo kooperatsiyani kengaytirish, qayta ishlash sanoatida samaradorlikni oshirish maqsadida tarmoqlar va hududlarda bir qator yangi ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Xususan: yirik sanoat korxonalari negizida 6 ta kimyo-texnologiya klasteri; yengil avtomoibillar, yuk mashinalari, avtobuslar, qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqaruvchi korxonalarni ham o'z ichiga olgan mashinasozlik klasterlari; Toshkent viloyatida 41 ta sanoat klasteri; elektromobillar uchun butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni lokalizatsiya qilish bo'yicha elektromobil klasteri; Sho'rtan majmuasi doirasida gaz-kimyo klasteri, shuningdek, mamlakatning barcha hududlaridagi boshqa klasterlar.

## XULOSALAR

1. Zamonaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda klasterlarning O'zbekiston mintaqaviy hududlarida yuzaga kelishi va rivojlanishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning optimal va innovasion shakli hisoblanadi. Bu yerda, klasterlar ichki va tashqi bozorni raqobotli, sifatli va xaridorgir bo'lgan mahsulotlar bilan ta'minlash, bundan tashqari ijtimoiy va ekologik samaralar - malakali mehnat o'rinlari sonini ko'paytirish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, mehnatga layoqatlilik davrini o'sishini ta'minlash, ishsizlar sonini kamaytirish, tabiiy resurslarni asrash kabi jaryonlarni hisobga olish zarur bo'ladi.

2. Klasterlashtirishning asosiy afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi: Iqtisodiy o'sish "nuqta"li tasnifga ega bo'ladi, ya'ni tez rivojlanayotgan korxonalar, tarmoqlar, hududlar bilan yonma-yon zarar ko'rib ishlaydigan va depressiv (tarqoq)lari ham faoliyat ko'rsatadi. Klasterli yondoshuv resurslarni "o'sish nuqtalari"ga yo'naltiradi, resurslarni tarqoq (depressiv) tarmoqlar va hududlarga taqsimlab tashlamaydi.

3. Klasterlarning "o'sish nuqtalari"ni rivojlantirilishi - yangi klasterlarni rivojlanishini iqtisodiy potensialini yaratamogda. Natijada, 2022 yil uchun "State of cluster development" («Klaster rivojlanishi holati») ko'rsatkichi reytingida birinchi beshlikni AQSh (78,5 ball), Xitoy (72,6), Shvesariya (71,9), Italiya (70,2) va Birlashgan Arab Amirli (69,9) egallaydi. Ushbu reytingda O'zbekiston Respublikasi dunyoning 132 davlati orasida 27-o'rinni (59,9 ball) egalladi [8].

4. So'nggi besh yilda ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32 baravar oshdi va 2022 yil natijalariga ko'ra 28,7 trillion so'mga yetdi [9]. 2018-2022 yillarda klasterlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 5,2 marotaba, tizimda band bo'lganlar soni esa 2,5 marotaba ortdi. Klasterlarning jami sanoat mahsulotlari eksportidagi ulushi 2019 yilda 5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda 11,4 foizga yetdi. 2018-2022 yillar oralig'ida klasterlar tizimida mehnat unumdorligi 12,9 baravar, investitsiyalarning rentabellik (ARR) koeffitsiyenti 1 dan 1,4 gacha oshdi.

## ADABIYOTLAR

- [1]. Michael E. Porter and Christian Ketels, with Mercedes Delgado and Richard Bryden. Competitiveness at the Crossroads:

Choosing the Future Direction of the Russian Economy - Other Unpublished Work - Faculty & Research - Harvard Business School.

[https://www.hbs.edu/ris/Publication%20Files/Russia\\_Competitiveness\\_Crossroads\\_Dec2007\\_2423559d-9d53-4b95-b206-28d6208f851a.pdf](https://www.hbs.edu/ris/Publication%20Files/Russia_Competitiveness_Crossroads_Dec2007_2423559d-9d53-4b95-b206-28d6208f851a.pdf)

- [2] <https://www.theglobaleconomy.com/> - Глобальная экономика, мировая экономика | TheGlobalEconomy.com
- [3] Урдушев, Х., Мавлянов, М., Эшанкулов, С. и Розиева, Г. (2023) "Агрокластеры и место цифровых технологий в их развитие". *Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(6), сс. 115–125. doi: 10.47390/SP1342V3I6Y2023N15
- [4] Хамракул Урдушев, Маджид Мавлянов, Сирожиддин Эшанкулов. Кластерлар кишлок хўжалиги ва чорвачиликда хўжалик юритиш фаолиятини замонавий усуллари сифатида. Samarkand branch of Tashkent State Agrarian University Theoretical and practical foundations of introducing smart agriculture in Uzbekistan. Volume 4 | SamTSAU Conference | 2023. <https://cyberleninka.ru/article/n/klasterlar-ishlo-h-zhaligi-va-chorvachilikda-h-zhalik-yuritish-faoliyatini-zamonaviy-usullari-sifatida>
- [5] Урдушев Х., Эшанкулов С., Мавлянов М.Т. (2022). Кластерлар интеграциялашган тузилма сифатида. Veterinariya va chorvachilikda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etishning istiqboldagi vazifalari" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, 2022 yil. <https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/article/view/4801/4328>
- [6] Urdushev, KH. and Eshankulov, S. (2021) "The role of fruit and vegetable clusters in the development of agricultural sectors", *Society and Innovation*, 2(3/S), pp. 301–315. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss3/S-pp 301-315 <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/663/863>
- [7] [https://t.me/ifmr\\_public](https://t.me/ifmr_public) - Макроиктисодий ва худудий тадқиқотлар институти
- [8] <https://regulation.gov.uz/ru/d/79193> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA "KLASTER" VA "KLASTER

- SIYOSATI'NING YAGONA  
KONSEPSIYASI TO'G'RISIDA
- [9]. [https://t.me/ifmr\\_public/3965/](https://t.me/ifmr_public/3965/)  
Прогнозлаштириш ва макроиқтисодий  
тадқиқотлар институти (ПМТИ)
- [10] Урдушев, Х., Мавлянов, М., &  
Эшанкулов, С. (2023).  
АГРОКЛАСТЕРЛАРНИ

ТАСНИФЛАШГА ЁНДОШУВЛАР,  
МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ ВА  
СИНФЛАНИШИ. Nashrlar, 1(2), 305–  
309. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/editions/article/view/435>